

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi

60721800 – Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo‘yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablarli

Toshkent-2023

Y3P QYMTB

Бүйрүк № 344
7-07-2023 ил

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat texnika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2023 yil «7»
08 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O’zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r

| | | |
|--------|--|----------|
| 1. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) bakalavriat ta'lim yo'nališining umumiy tavsifi</i> | bet 4 |
| 1.1. | <i>Qo'llanish sohasi</i> | 4 |
| 1.1.1. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nališi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi</i> | 4 |
| 1.1.2. | <i>Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari</i> | 4 |
| 1.2. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i> | 4 |
| 1.2.1. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari</i> | 4 |
| 1.2.2. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari</i> | 5 |
| 1.2.3. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari</i> | 5 |
| 1.2.4. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari</i> | 5 |
| 2. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar</i> | 7 |
| 2.1. | <i>Umumiy kompetensiyalar</i> | 7 |
| 2.2. | <i>Kasbiy kompetensiyalar</i> | 7 |
| 2.3. | <i>Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar</i> | 8 |
| 2.3.1. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) bakalavriat ta'lim yo'nališi o'quv rejasidagi fanlarni quyidagicha klassifikasiyalash (tasniflash) mumkin</i> | 8 |
| 2.3.1. | <i>Kvalifikasiya: biolog, pedagog</i> | 9 |
| 2.3.2. | <i>D. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nališi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar</i> | 9 |
| 2.3.3. | <i>60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) bakalavriat ta'lim yo'nališi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi</i> | 10 |
| | <i>Bibliografik ma'lumotlar</i> | 11 |
| | <i>Kelishuv varag'i</i> | 12 |

1. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) bakalavriat ta'lim yo'naliشining tavsifi

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliшhi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'naliшhi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'naliшining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasaining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalar;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliшhi – fan va texnika sohasidagi yo'naliшhi bo'lib, yer qa'rida neft va gazning yotish holatlarini o'rganish, neft va gaz konlarini oqilona o'zlashtirish, neft va gaz konlarining mahsuldarligini oshirish texnologiyalari, neft va gaz konlaridan samarali foydalanishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikma, mutasadilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari:



- "O'zbekneftgaz" AJga tegishli barcha tarmoq korxonalar;
- neft va gaz konlarini loyihalash tashkilotlari;
- neft va gaz qazib chiqarish korxonalar;
- neft va gaz quduqlarini ta'mirlash korxonalar;
- gazni yer ostida saqlash inshootlari;
- nasos va kompressor stansiyalari;
- neft va gaz qazib olishda ishlatalish jihozlar va ularning konstruksiyalarini montaj qilish va sozlash korxonalar;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta'minlash vositalari; kasb-hunar kollejlaridagi o'quv-tarbiya jarayoni.

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan va texnika sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, neft va gaz konlarini o'zlashtirish, loyihalash, quduqlarni kapital ta'mirlash, neft-gazni qazib chiqarish, yig'ish, tayyorlash va uzatish, neft va gaz qazib olish tizimida ishlataladigan jihozlar va ularning konstruksiyalarini montaj qilish va sozlash korxonalarida faoliyat olib borish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida elektr energetikasi sohasiga oid fanlardan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish hamda elektr ta'minoti tizimini loyihalash tashkilotlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *muhandislik - qidiruv va loyiha-konstrukturlik faoliyati;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida).*

1.2.4. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Muhandislik-qidiruv va loyihiaviy-konstrukturlik faoliyatida:

- neft va gaz konlarini ishlash va ishlatalishni loyihalash, neft va gaz konlarini ishlashini tahlil etish, ta'mirlangan quduqlarni sinash va o'zlashtirishni loyihalash, neft va gaz qazib chiqarish jarayonini loyihalashtirish va loyihalashtirishda informasion texnologiyalardan foydalanish qobiliyatlar;

- neft va gaz quduqlarini ishlatishdagi asoratlarni bartaraf etish, neft va gaz quduqlarini joriy va kapital ta'mirlash texnologiyalari, quduqlarni ishlatishning texnologik rejimini hisoblash, neft va gaz quduqlarining mahsuldorligini boshqarish, mahsuldor qatlamlarga ta'sir etish texnologiyalari, qatlamlarning neft va gaz bera olishligini oshirish texnologiyalari, qazib olingan neft va gazni yer ostida tayyorlash texnologiyalari va jihozlarini loyihalashtirishni amaliyotga joriy qilish qobiliyati;

- loyihiaviy va dasturiy hujjatarni ishlab chiqish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib faoliyat ob'yektlari holatini tahlil qilishda ishtirok etish;
- muhandislik ishi sohasidagi ob'yektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, sinash va ulardan samarali foydalanishda ishtirok etish;
- samarasiz vaqt, mehnat va moddiy resurslarni kamaytirish, rasional texnologik jarayonlarni tanlash bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazishda qatnashish;
- muhandislik ishi ta'lim sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- tahlil, hisobotlar va ilmiy publikasiyalarni tuzish uchun ma'lumotlarni tayyorlash;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- muhandislik ishi jabhasidagi ob'yektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;
- tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida ishtirok etish;
- ob'yektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarning ekspluatasiya xavfsizligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;
- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;
- kasbiy etika koidalariga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjalarni ishlash va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovasiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lган sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.



Umumiy o'rta va professional ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lif va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

2. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrflashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- neft va gaz konlarini oqilona loyihalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informasiyon va imitasjon modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilishni bilish;
- loyihibiy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- neft va gaz quduqlarini o'zlashtirishdagi ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirishni bilish;
- neft va gaz quduqlarini ishlatishdagi jarayonlarni boshqarish, maromiga yetkazish va o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- neft va gaz sanoati tizimida resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq qilishni bilish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- soha ta'minoti tizimida uzlusizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- neft va gaz konlaridagi qurilmalarning ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;



- neft va gaz sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- neft va gaz konlari mashina va jihozlarini montaj qilish, sozlash, sinash va foydalanishga topshirish qoidalari va texnologiyasini bilish;

- neft va gaz quduqlarini kapital ta'mirlash va ularning va qoldiq resursini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

O'quv rejasidagi fanlarni quyidagicha klassifikasiyalash (tasniflash) mumkin.

1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):

➤ Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

➤ Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarini yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'Imagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

2. Tanlov fanlari.

➤ Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'Imagan qismi taqsimlanishi mumkin.

➤ Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagen ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'Imagan qismi taqsimlanishi mumkin.

O'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

A. Majburiy fanlar

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarini yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'Imagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

B. Tanlov fanlar ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovasion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga uchtadan kam bo'Imagan o'rmini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlar majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

C. Malakaviy va pedagogik amaliyot.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi:

2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni



4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegisli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lif yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

D. 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lif yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lif shakli uchun fanlarga ajratilagan soat | Ajratilgan kredit |
|--|--|-------------------|
| Majburiy fanlar | 4950 | 165 |
| Tanlov fanlar | 1680 | 56 |
| Malakaviy amaliyot | 420 | 14 |
| Yakuniy davlat attestasiyasi | 150 | 5 |

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|-------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|----------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 4950 | 165 | |
| 1.01 | O'RT11104 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | DIN11204 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | KIM11204 | Kimyo | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | XT12408 | Xorijiy til 1,2 | 240 | 8 | 2 |
| 1.05 | FIZ11210 | Fizika 1,2 | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.06 | OM11315 | Olyi matematika 1,2,3 | 450 | 15 | 1,2,3 |
| 1.07 | O'EYT11104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.08 | TTAT11104 | Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari | 120 | 4 | 1 |
| 1.09 | MKG11104 | Muhandislik va kompyuter grafikasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.10 | MS12404 | Metrologiya va standartlashtirish | 120 | 4 | 4 |
| 1.11 | SIM14804 | Soha iqtisodiyoti va menejmenti | 120 | 4 | 8 |
| 1.12 | FAL13604 | Falsafa | 120 | 4 | 6 |
| 1.13 | EKA13504 | Ekologiya | 120 | 4 | 5 |
| 1.14 | XFX14704 | Hayot faoliyati havfsizligi | 120 | 4 | 7 |
| 1.15 | YK11204 | Geodeziya | 120 | 4 | 2 |
| 1.16 | NGG11105 | Neft va gaz geologiyasi | 150 | 5 | 1 |
| 1.17 | UYOGID12410 | Umumiy va yer osti gidravlikasi | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.18 | NGIA12306 | Neft va gaz ishi asoslari | 180 | 6 | 3 |
| 1.19 | NGKG12306 | Neft va gaz konlari geologiyasi | 180 | 6 | 3 |
| 1.20 | NGQB12405 | Neft va gaz quduqlarini burg'ilash | 150 | 5 | 4 |
| 1.21 | NGQF13505 | Neft va gaz qatlam fizikasi | 150 | 5 | 5 |
| 1.22 | KNGSYTU14810 | Konlarda neft, gaz, suvni yig'ish, tayyorlash va uzatish | 300 | 10 | 7,8 |
| 1.23 | NGQOT14811 | Neft va gaz qazib olish texnika va texnologiyasi | 330 | 11 | 7,8 |
| 1.24 | GGKKI14811 | Gaz, gazkondensat konlari ishlatish | 330 | 11 | 7,8 |
| 1.25 | NKI114809 | Neft konlari ishlatish | 270 | 9 | 7,8 |
| 1.26 | NGQT13708 | Neft va gaz quduqlarini ta'mirlash | 240 | 8 | 6,7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 1680 | 56 | |
| 2.00 | | Tanlov fanlar (8 ta fan) | 1680 | 56 | 2,3,4,5,6 |
| | | Jami | 6630 | 221 | |
| | | Malakaviy amaliyot | 420 | 14 | 5, 7, 2 |
| | | Yakuniy davlat attestasiyasi | 150 | 5 | 5 |
| | | Jami | 570 | 19 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKC 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy ta'lif, o'quv jarayoni, konsalting, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, neft, gaz, qidqoq, mahsuldor qatlam, kon, neft-gaz beraoluvchanlik, separator, rezervuar, elektrdegidemator, kondensat, nasos va kompressorlar, sifat nazorat, davlat attestasiyasi, mustaqil ta'lif, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lif muassasasi, ta'lif jarayoni, profil, amaliyot ob'yekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamouschilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:



M.O.

**Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti**

Rektor

prof. S.M. Turabdjanov

2023 yil « 06 » 02

KELISHILGAN:

**Oliy ta'lif, fan va innovasiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlanadirish tadqiqotlari markazi
direktori**

Direktor

Sh. Yakubov

M.O.

2023 yil 06 » 02

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti**

Rektor

O.Sh. Bazarov

M.O.

2023 yil « 06 » 02

**“O’zbekneftgaz” AJ boshqaruvi
raisining geologiya va qazib chiqarish
bo’yičha o’rinbosari**

R. Sherov

2023 yil « 06 » 02

M.O.



**Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti**

Rektor

M.Z. Sharipov

M.O.

2023 yil « 06 » 02



Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilar o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“7” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “O'zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisining Geologiya va qazib chiqarish bo'yicha o'rribosari R.Ch.Sherov, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektori O.Sh.Bazarov, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori M.Z.Sharipov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlар, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilar tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**“O'zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisining
Geologiya va qazib chiqarish bo'yicha o'rribosari**

R.Ch.Sherov

QarMII rektori

O.Sh. Bazarov

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektori, professor**

S.M.Turabdjanov

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida
ishlab chiqilgan 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha:
neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliishi
bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va
zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka
talablari va o'quv rejasiga**

TAQRIZ

"Ta'lim to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloq qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining Respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda O'zR OO'MTV ning 2018 yil 6 iyundagi "Oliy ta'lim yo'naliishlarining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish to'g'risida"gi №87-02-1322-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjalarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'naliishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'naliishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar xamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilalar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab

topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil kilinga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyilla-rida amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyatda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyatda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi xamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.



O.Sh.Bazarov

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida
ishlab chiqilgan 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha:
neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrilar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va
zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka
talablari va o'quv rejasiga**

TAQRIZ

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002сонли topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar xamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingen ma'lumotlarni tahlil kilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyilla-riga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagen mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingen.

Xulosa qilib aytganda, 60721800 - Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha: neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va

o‘quv rejasi oliy ta’lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

BMTI rektori



M.Z.Sharipov